

This is not registered version of TotalDocConverter

Xon qanday xotirada, og'ziga o'tirib berish kerak ekan. Hoshimjon qiziqib ketib bir ogiz gap aytdi-yu, baloga qoldi.

Bolalik ekan, ota-ona yo'q, bozorda bitta qovun o'g'irlab qo'lga tushib qoldim. Militsnyada bir kun o'tirganman. Esimga tushsa, hali-hali xijolat bo'laman. Shunga ham qirq bir yil bo'пти.

Bor-yo'g'i bo'lgan gap shu. Suhbatdoshlar orasida bir ilmiy xodim o'tirgan ekan. Qachon, qaerda, deb surishtirib qoldi.

Hoshimjon yaqinda pensiyaga chiqqan. O'ttiz yil o'qituvchilik qildi. Axir u uncha-muncha o'qituvchi emas, xizmat ko'rsatgan o'qituvchi. Eng kamida ikki-uch ming bolani o'qktgan. Uning talabalaridan necha fan kandidati, nechalab injener, doktor chiqqan.

Uch-to'rt kundan keyin Hoshimjonnikiga o'sha ilmiy xodim keldi. Bola tarbiyasi va qonun degan mavzuda ezilib gaplashpb o'tirishdi. Gap orasida u Hoshimjondan:

Militsiya qo'lga tushib chiqqaningizdan keyin o'zingizga qanday xulosalar chiqqargansiz? deb so'rab qoldi.

Hoshimjon nima deyishini bilmay, birpas chaynaldi. Keyin javob qildi:

Bu gapga qirq yildan oshgan. Hozir esimda yo'q qanaqa xulosa chiqqarganim.

Har holda, dedi ilmiy xodkm.

Har holdami? Har holda o'zinga tegishli xulosa chiqqargan bo'lishim kerak. O'shandan keyin qovun yemaydigan bo'lib ketganman.

Demak, militsiyaning tarbiyaviy rolini inkor qilmaysiz?

Hoshimjonning g'ashi keldi, shundoq bo'lsa ham, ha, albatta, dedi.

Shu bilan gap tamom bo'ldi. Ammo oradan sal kun o'tib, uyiga bir taklifnoma keldi. Unda "Hurmatli Hoshimjon Olimjonov, bilim yurti talabarlari bilan uchrashuvga kelpshingiznk iltimos qilamiz" deyilgandi.

Bunaqa joyga, yana manavinaqa taklifga yo'q deb bo'larmidi. Hoshimjon soqoliii qirtishlab, yaxshi kostyumini kiyib, yetib bordi.

Bilim yurti klubiga odam sig'maydi. Eshikda "Teletsentr" deb yozilgan avtobus. Ichkarisida projektorlar, kinooperatorlar...

Hoshimjonni minbarga taklif qilishdi. Qarasa, tunov kungi ilmiy xodim yuqorida o'tiribdi. Bunga ham Hoshimjon hayron

bo'lmadi, o'tirgan bo'lsa, o'tirgandir-da, deb qo'ya qoldi. Ammo u minbarga chiqib, gap boshlaganda, hayronlikdan og'zi ochilib qoldi. Ilmiy xodim berilib, ovozini goh baland, goh past qilib gapirardi:

...Mana, qarshingizda sobiq jinoyatchilar, yo'lto'sarlar, mayda o'g'rilar...

Hoshimjonning ko'zi tinib ketdi. Gapning davomini eshita olmadi. Chunki qulog'i shang'illab, boshi aylanib ketgandi. Ilmiy xodim davom etyapti:

Ammo bu jinoyatchilar bizning yordamimizda qayta tarbiyalangan, jamiyatimizning ongli grajdanlariga aylangan...

Hoshimjon holdan toydi. Qanday qilib yig'in tugaganini, qanday qilib uyiga kelganini bilmaydi.

Oradan uch kun o'tib, televizor ko'rib o'tirsa, birdan tunov kungi ilmiy xodim chiqib qoldi. U yana o'sha gapni qaytarar

uchrashuvda olingan kinolentani qo'yib, "sobiq o'g'rilar"ning basharasini ko'rsatardi.

Hoshimjon yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi. Chunki yonida ikki nevarasi, kelini o'tiribdi. Undan tashqari, necha minglab

shogirdlari shu topda "sobiq o'g'ri" ustozlarini ko'rib o'tirishgandir...

Shu gapdan buyon oradan sakkiz oy o'tdi. O'sha ilmiy xodim fan kandidati degan ilmiy darajaga sazovor bo'ldi.

Bu gaplardan uni kandidat qilgan "sobiq o'g'ri"ning xabari yo'q edi.